IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

BOSHLANG`ICH SINF DARSLARIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA`LIM

Omina Sayfullayeva
Oriental Universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada integratsiya haqida tushunchalar mavjud. Ta`limdagi integratsiya haqida keltirilgan. Zamonaviy ta`lim, boshlang`ich ta`lim, oiladagi ta`lim-tarbiya haqida so`z yuritilgan.

KALIT SO'ZLAR

Ta`lim, integratsiya, boshlang`ich sinf, boshlang`ich ta`lim, maktab, pedagogika, hujjat, bolalar, oila, innovatsiya.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются концепции интеграции. Обсуждается интеграция в образовании. Рассматриваются современное образование, начальное образование, а также образование и воспитание в семье.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Образование, интеграция, начальная школа, начальное образование, школа, педагогика, документ, дети, семья, инновации.

ANNOTATION

This article contains concepts about integration. It discusses integration in education. It discusses modern education, primary education, and education and upbringing in the family.

KEYWORDS

Education, integration, primary school, primary education, school, pedagogy, document, children, family, innovation.

Integratsiya (lotincha integration – tiklash, to‘ldirish, integer – butun so‘zidan)— bu suveren davlatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni. 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni; differensiatsiya bilan birga kechadi; 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish

Integratsiya platformalari

Integratsiya uchun foydalaniladigan zamonaviy platformalar quyidagilardan iborat:

Mulesoft – Katta kompaniyalar uchun keng ko‘lamli integratsiya yechimlarini taqdim etuvchi platforma;

Zapier – Oson va tez integratsiyalar uchun iPaaS (Integration Platform as a Service) yechimlari;

iPaaS platformalari – iPaaS platformalari integratsiyalarni tez va samarali amalga oshirishga yordam beradi

Zamonaviy dunyo integratsiya jarayonlari bilan rivojlanmoqda. Dunyoning turli mintaqalarida integratsiya savdo-iqtisodiy, valuta, bojxona va siyosiy birlashmalari sifatida shakllanmoqda. Bu obyektiv va tabiiy jarayon. Integratsiya jarayonlari sayyoramiz miqyosida chuqurlashib, takomillashib kuchayib bormoqda. Integratsiya jarayonlari birinchi navbatda ko‘plab xalqaro va nodavlat tashkilotlarning shakllanishida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayon bir tomondan globallashuvning ta’sirida yuz berayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mazkur voqelik bevosita global iqtisodiy o‘zgarishlarni yuqori darajaga ko‘tarmoqda. Bunday sharoitda har bir mamlakat o‘z iqtisodiyotini milliy manfaatlarini ko‘zlab va ayni bir paytda boshqa davlatlar bilan teng manfaatli hamkorlik asosida rivojlantirishi, integratsion guruhlarda faol ishtirokchi bo‘lishi talab etiladi. Globalizatsiyaning chuqurlashuvi hozirgi kunda butun dunyoni “bir qishloqqa” aylantirgan sharoitda mamlakatda xalqaro iqtisodiy munosabatlar, jahon siyosati, xalqaro iqtisodiy siyosat, diplomatiya sohalarida yetuk mutaxassislar tayyorlashni yuqori bosqichga ko‘tarishni talab etadi.

Boshlang’ich sinflarda fanlarni integratsiyalash dars smaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi, darsni chuqur o’zlashtirishga yordam beradi, bo’sh vaqt orttiriladi va to’garaklarga jalb etiladi. Boshlang’ich ta`limda ona tili, o’qish, tabiat, tasviriy san`at darslarini integratsiyalash mumkin. Masalan, O’zbekiston mening Vatanim mavzusini o’tishi uchun mavzu tushuntiriladi, tabiiy boyliklari va ularni qadriga etish ko’rib chiqiladi va mavzu asosida rasm ham chiziladi. Bu esa bolani mavzuni yaxshi tushunib olishiga yordam beradi, kengroq va chuqurroq tushunishiga imkon ortadi, uzoq vaqt yodda saqlab qolishiga yordam beradi. Bu esa dars samaradorligini oshiradi. Ona tili, o’qish, matematika, mehnat darslari integratsiya qilinsa ham yaxshi natijaga erishiladi. Bunda ham o’quvchi darsni yaxshi tushunadi. Masalan, “Kuz” mavzusi o’tilsa, mavzu o’qiladi, tushuntiriladi, hosil yig’ib olishga doir masalalar echiladi, mehnat darslarida mevalarni yasash mumkin. Shunda esa darsni mukammal o’zlashtirib olishlariga imkon yaratadi. Masalan;

Bog’da o’quvchilar birinchi kuni 35 kg, ikkkinchi kuni 45 kg olma terishdi. Hammasi bo’lib necha kg olma terishdi? 35+45к80 javob: 80 kg.

Bu masala asosida mevalar rasmini chizishlari mumkin. Bola bir darsning o’zida kuz haqida o’rgandi, mevalar haqida bildi va rasm chizdilar, kuz mevalari haqida masala echdilar. Shunday qilib o’quvchi birgina integratsiya darsida juda ko’p ma`lumotlarga ega bo’ldi va uzoq vaqt esda saqlab qoladilar deb o’ylayman. Matematika, jismoniy tarbiya, tabiat, musiqa darslari mujassamlashtirilsa foydadan holi bo’lmaydi. Musiqa eshitish, mavzu yuzasidan misol echish, narsalar yasash bular hammasi darsni yaxshi chiqishiga olib keladi deb o’ylayman. Fanlarni integratsiya qilib dars o’tilganda quyidagilarga e`tibor berish kerak.

Dars faqat ta`limiy bo’lib qolmasdan, o’quvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo’lishi kerak. Mavzuni mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqiyoti haqidagi ilmiy bilimlar, o’quv respublikamiz kelajagiga ishonch va e`tiqodni shakillantirishga qaratilgan bo’lishi kerak.Umuman olganda integratsiya darsi bir- biriga mos kelishi (mavzu jihatdan) va puxta reja asosida tuzilgan bo’lishi kerak. Boshlang'ich maktablarda o'qitish va tarbiyalash integrasiyasi muammolari nazariy va amaliy jihatdan hozirgi zamon nuqtai nazardan juda muhim bo'lib, yangi ijtimoiy talablar asosida yanada dolzarblik kasb etadi. Bugungi kunda fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o'zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar maktab ta'limi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Hozirgi zamon ilm berish sistemasi

yuqori darajada fan asoslarini o'rnatishga, tafakkurni rivojlangan, olamni bir butunlikda anglashga va tasavvur etishga, tevarak atrofda bo'layotgan voqealarni to'g'ri anglashga, ularni mohiyatini anglab oladigan yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan. Maktablarda o'rgatiladigan fanlarning tarqoqligi maktab bitiruvchisida bir ko'rinishli (fragmentar) dunyoqarashni keltirib chiqaradi. Hozirgi zamon ilm-fanida esa iqtisodiy, siyosiy va madaniy fanlari integrasiyasiga moyillik yuqori turadi.

Integrirlangan darsning asosiy xususiyati bunday dars bir fan asosida tuziladi, u asosiy e`tiborda bo`ladi, qolganlari u bilan birga integrirlashadi, uning aloqalarini, jarayonlarni o`rganishda fanning ma`nosini tushunishda, hayot bilan aloqasini tushunishda, olingan bilimni amalda ishlatishda qo`llanadi.

Davlat oilada ta`lim olishga va mustaqil ta`lim olishga ko`maklashadi. Bolalarning oilada ta`lim olishi va mustaqil ta`lim olish uslubiy va maslahat yordami ko`rsatilgan holda tegishli o`quv dasturlari bo`yicha amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" fani o'ziga xos metodologik asoslarga tayanadi. Mazkur metodologiyaning asosiylarini quyidagilar tashkil etadi:

boshlang'ich ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar;
boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti;
boshlang'ich ta'limga oid SHarq va G'arb pedagogik tajribalari;
boshlang'ich ta'limga oid ilmiy tadqiqotlar.

Ushbu metodologik asoslarini bo'lajak o'qituvchilar aniq o'zlashtirishi lozim.

Boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendentsiyalari. "Tendensiya" tushunchasi lotincha bo'lib, an'ana, takomil va namuna ma'nolarini anglatadi. SHu jihatdan hozirgi zamon boshlang'ich ta'limining o'ziga xos va muhim tendentsiyalari quyidagilardan iborat:

1) boshlang'ich ta'limga yangi va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;
2) boshlang'ich ta'limning madaniy kontekstini kuchaytirish;
3) boshlang'ich ta'limga oid xalqlarning ilg'or tajribalarini tadbiq etish.

Boshlang'ich ta'limga yangi va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda

kompbyuter, Internet tarmog'i imkoniyatlaridang oqilona foydalanish masalasiga asosiy e'tibor berilmoqda. Bunda texnologik ta'lim asoslari kuchayib bormoqda va ayni paytda, texnologik ta'lim rivojlanish hamda shakllanish jarayonida bo'lgan boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining insoniy, jismoniy hamda estetik tuyg'ularini texnokratik tarzda shakllantirmasligi kerak.

Butun dunyoda boshlang'ich ta'limga xalqlarning ilg'or tajribalarini tadbiq etish tendentsiyasi davom etmoqda. Unga ko'ra, muayyan xalqlarning boshlang'ich ta'limda erishgan yutuqlari o'zga xalqlar tomonidan qabul qilinmoqda. Misol uchun, Rossiya Federatsiyasining boshlang'ich ta'limdagi xalqparvarlik konteksti, Finlandiya qirolligining boshlang'ich ta'limidagi xususiy ta'lim konteksti va O'zbekiston boshlang'ich ta'limidagi dunyoviylik konteksti xalqaro tajribalar sifatida e'tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.J.Atajonova, Sh.A.Raximova, G.I.Raximova, G.B.Jumaniyazova ”BOSHLANG’ICH TA’LIM PEDAGOGIKASI“ (Darslik)
2. F.A. ABDURAXMONOV ”INTEGRATSIYA VA IQTISODIY GLOBALLASHUV” (Darslik)
3. https://api.ziyonet.uz/uploads/books/662/5b07e64d35000.pdf
4. .https://uz.wikipedia.org/wiki/Integratsiya
5. https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-ta-lim-pedagogikasi-mazmuni